

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                                                     |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>F.Babadjanov</b>                                                                                                 |     |
| O'zbek tilida ish yuritish tizimining shakllanishi va uning mustaqillik davridagi taraqqiyoti .....                 | 637 |
| <b>Э.Х.Мустаева</b>                                                                                                 |     |
| Риторическая компетенция как основа формирования профессиональной коммуникации в условиях цифровизации .....        | 641 |
| <b>З.А.Низомитдинова</b>                                                                                            |     |
| Сравнительная идентификация гендерного дискурса в медиасреде .....                                                  | 647 |
| <b>Н.М.Каримова</b>                                                                                                 |     |
| Эволюция художественного языка В. Распутина и Х. Дустмухаммада: этапы и особенности .....                           | 652 |
| <b>Ш.Н.Саминжонова</b>                                                                                              |     |
| Современные подходы исследования когнитивных единиц языка сети интернет .....                                       | 657 |
| <b>М.Э.Турсунова</b>                                                                                                |     |
| Влияние глобализации на язык молодежи на примерах англицизмов .....                                                 | 663 |
| <b>Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева</b>                                                                                   |     |
| Ключевые направления эволюции русского языкознания в XXI веке: возникновение научных парадигм .....                 | 666 |
| <b>З.Т.Исаева</b>                                                                                                   |     |
| Комплексный анализ парадигматических и синтагматических структур .....                                              | 672 |
| <b>Д.О.Турдалиев</b>                                                                                                |     |
| Теория лингвистической относительности и её отражение в повести теда чана «История твоей жизни» .....               | 678 |
| <b>Н.Т.Ходжаева</b>                                                                                                 |     |
| Современные методы преподавания русского языка как иностранного: технологии, подходы, практическая значимость ..... | 681 |
| <b>В.Гимадетдинова</b>                                                                                              |     |
| Анализ лингвокреативных стратегий современного медиатекста .....                                                    | 684 |
| <b>Э.А.Абдуллаева</b>                                                                                               |     |
| Социокультурный анализ межкультурных коммуникаций .....                                                             | 688 |
| <b>Б.Х.Абдуллаева</b>                                                                                               |     |
| Трансформация фразеологизмов в русском языке XXI века .....                                                         | 693 |
| <b>У.М.Юлбарсова</b>                                                                                                |     |
| Лингвокультурные различия в восприятии концепта "Дом" у русских и узбеков .....                                     | 697 |
| <b>М.Т.Abdupattoyev</b>                                                                                             |     |
| Poetik sintaksis: ekspressiv va ekstralingvistik vositalar talqini .....                                            | 700 |
| <b>F.H.Islomova</b>                                                                                                 |     |
| Matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi metodlar .....                                                            | 704 |
| <b>A.R.Dadajonov, I.T.Xojaliyev</b>                                                                                 |     |
| Muhokama nutq tipining til tizimida tutgan o'rni .....                                                              | 707 |
| <b>G.A.Asomiddinova</b>                                                                                             |     |
| Stefan Sveygning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida inson ruhiy olamining talqini .....                | 711 |
| <b>Sh.T.Axmadjonova</b>                                                                                             |     |
| Ingliz va o'zbek tillarida badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari .....                                          | 714 |
| <b>Sh.G.Akbarova</b>                                                                                                |     |
| Nazar eshonqulning "Tobut" va Alber Kamyuning "Vabo" romanlarining qiyosiy tahlili .....                            | 717 |
| <b>Д.С.Усмонова</b>                                                                                                 |     |
| Аксиология языка: как ценности формируют фразеологию и культурное сознание .....                                    | 722 |
| <b>A.I. Saminov</b>                                                                                                 |     |
| Oksyumoron komponentlarining mazmuniy munosabati .....                                                              | 727 |
| <b>M.T.Xalilova</b>                                                                                                 |     |
| Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik sathdagi mazmuniy munosabatlarning o'rganilishi xususida .....                   | 732 |
| <b>N.A.Quldashev</b>                                                                                                |     |
| Raqamli asrda til va identifikatsiya: ijtimoiy media, online muloqot va tildan foydalanish. ....                    | 736 |
| <b>Г.Н.Давлятова, Г.М.Мамаджанова</b>                                                                               |     |
| Фреймовое представление лингвокультурологических единиц .....                                                       | 739 |



UO'K: 1751

## O'ZBEK TILIDA ISH YURITISH TIZIMINING SHAKLLANISHI VA UNING MUSTAQILLIK DAVRIDAGI TARAQQIYOTI

## ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ДЕЛОПРОИЗВОДСТВА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ЕЕ РАЗВИТИЕ В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ

## THE FORMATION OF THE UZBEK LANGUAGE MANAGEMENT SYSTEM AND ITS DEVELOPMENT IN THE PERIOD OF ITS INDEPENDENCE

**Farxad Babadjanov** 

filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy bo'linmasi rahbari

### Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilida ish yuritish tizimining shakllanishi, mustaqillikdan keyingi taraqqiyoti ko'rib chiqilgan. Tizimni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, qo'llanma va lug'atlar tahlil etilgan. Sohadagi muammolar tahlil qilinib, ularning yechimi bo'yicha takliflar bildirilgan.

### Аннотация

В данной статье рассматривается становление системы делопроизводства на узбекском языке, ее развитие после обретения независимости. Проанализированы нормативно-правовые документы, руководства и словари, регулирующие систему. Анализируются проблемы в сфере и вносятся предложения по их решению.

### Abstract

This article examines the formation of the Uzbek language office management system and its development after independence. The regulatory legal documents, manuals, and dictionaries governing the system have been analyzed. Problems in the field have been identified and examined, and proposals for their solutions have been presented.

**Kalit so'zlar:** ish yuritish, hujjatchilik, ish qog'ozi, til siyosati, normativ-huquqiy hujjat, hujjatchilik uslubi, standartlashtirish, matn qoliplari, hujjat rekvizitlari, hujjatchilik terminlari.

**Ключевые слова:** делопроизводство, документация, деловые бумаги, языковая политика, нормативный правовой документ, стиль документации, стандартизация, текстовые шаблоны, реквизиты, термины документации.

**Key words:** paperwork, documentation, official documents, language policy, regulatory legal act, documentary style, standardization, text templates, document attributes, documentation terminology

### KIRISH

O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan istilo qilinishi boshlanganidan keyin turkiy hujjatchilik an'analari buzila boshladi. O'zbek hujjatchilik uslubi butunlay ruscha ish yuritish uslubining soyasida qolib ketdi. Bora-bora bu an'analar butunlay barham topdi.

Chor Rossiyasi davrida boshlangan til siyosati bolsheviklar hukumati tomonidan ham izchillik bilan davom ettirildi. XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo xalqlari juda og'ir siyosiy ahvolni boshidan kechiradi. Chorizmdan qutilishga umid qilgan mahalliy xalq yangi hukumat – sho'rolar tazyiqi ostida qoldi. Bolsheviklar hokimiyati hukmronligining dastlabki yillarida xalqning ishonchini qozonish uchun birmuncha muddat diniy va til erkinliklari berilib, ish yuritish borasida mahalliy tillardan foydalanila boshlangan. O'zbekiston Jumhuriyatining inqilobiy qo'mitasi 1924-yilning 31-dekabrida 48-raqamli "Ishlarni o'zbek tilida yurgizish ham O'zbekiston Jumhuriyatining inqilobiy qo'mitasi huzurida markaziy yerlashtirish hay'ati va mahallalarda muzofot yerlashtirish hay'atlari tuzilish(i) to'g'risida" qaror qabul qiladi. Garchi bu qarorning kuchi 30-yillarning o'rtalariga kelib butunlay yo'qolgan bo'lsada, o'sha davrda o'zbek tilida hujjatchilik uslubining shakllanishiga huquqiy asos va amaliy imkoniyat bo'lib xizmat qildi. Biroq barcha hujjat andozalari ruscha hujjat



qoliplarini kalkalash orqali yaratila boshlagan. Hujjat namunalari yaratishda K.Gromatovichning "Ish qog'ozlari namunalar – Образцы деловых бумаг" (O'zbekiston Davlat nashriyoti: 1930-yil) qo'llanmasi asosiy andoza sifatida amaliyotga joriy etilgan.

Sobiq sho'rolar davrida o'zbek tilida ish yuritish tizimi amalda ishlamadi. XX asrning boshlarida, xususan, 20-30-yillarida mamlakatimizda hujjatchilik bevosita o'zbek tilida yuritilmadi: bu sohadagi asosiy yo'nalish rus tilidan nusxa ko'chirishdan iborat bo'lib qoldi. Boshqa sohalar kabi ish yuritish sohasida ham to'g'ridan-to'g'ri rus tilidan ko'plab so'zlar qabul qilindi [5:14]. Amaliyotda qo'llanilishi cheklanganligi sababli o'zbek tilining hujjatchilik uslubi unutila boshladi, faqat nomigagina amaliyotda bo'ldi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

O'zbek tilida ish yuritish tizimi, o'zbek hujjatchiligi uslubi XX asrning 80-90-yillarida qayta shakllana boshladi. Chunki bu tizim bir asrdan ortiq davr deyarli to'xtab, o'z o'zanidan chiqib ketgan edi. Yangidan shakllanayotgan tizimning jiddiy kamchiligi rus hujjatchiligining uslub va qoliplariga asoslanishida, undan chiqib keta olmasligida bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi o'z siyosiy mustaqilligiga erishgandan keyin ham ish yuritish tizimi rus tili andozalari ta'siridan qutila olmadi. Hujjatchilik uslubining boshqa til ta'sirida bo'lishi uning erkin rivojlanishiga to'sqinlik qilib keldi. Har qanday ish qog'ozining mazmun-mohiyati ruscha qoliplar andozasi asosida belgilanar, hujjat matnlari ruscha qolip asosida tuzilar va ish yuritish atamallari ruscha birliklarni kalkalash yordamida sun'iy shaklda hosil qilinardi. O'zbekcha hujjat qoliplari amalda qo'llanilmasdi.

1989-yilda "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilingandan keyin (1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda e'lon qilingan) davlat va hukumat miqyosida ish yuritish hujjatlarini o'zbek tilida olib borishga e'tibor qaratildi. Natijada deyarli yo'qolib ketayotgan o'zbek hujjatchilik uslubi qayta shakllana boshladi. O'zbek tilida ish yuritishga doir qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar ishlab chiqildi.

Mustaqillikka erishilgandan keyin o'zbek tilida ish yuritishning huquqiy asoslari yaratildi, davlat tilida ish yuritilishi rag'batlantirildi va davlat nazoratiga olindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 18-avgustdagi 424-son qarori bilan "O'zbek tilida ish yuritish bo'yicha Yo'riqnomasi" (hozirda bekor qilingan) tasdiqlandi. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, korporatsiyalari, konsernlari, uyushmalari, kompaniyalari va boshqa markaziy muassasalari apparatlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha Namunaviy yo'riqnomasi" [6] asosida qayta tasdiqlandi. Mazkur qaror bilan hujjatchilikni davlat tilida yuritish talabi qat'iyashtirildi.

Biroq XXI asrning birinchi o'n yilligida davlat boshqaruvi va hukumat tizimida davlat tiliga bo'lgan birmuncha pasayip ketdi. Qonun hujjatlarining tayyorlanishida, ish yuritish tizimida rus tilining mavqeyi yana osha boshladi. Shuningdek, aholi orasida farzandlarini rus tilida ta'lim olishiga qiziqish tobora ortib boshladi. Davlat tilining himoyasi tilshunos, adabiyotshunos va jonkuyar milliy ziyoliylar zimmasiga yuklatib qo'yildi. Davlat va hukumat miqyosida davlat tilining himoyasiga qaratilgan birorta normativ-huquqiy hujjat qabul qilinmadi. "Millatning borligi uning tili bilandir, shuning uchun ham har bir rivojlangan davlatda tilning nufuzi normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanib qo'yiladi" [2:145].

Sh.M.Mirziyoyev davlat rahbari bo'lgandan keyin davlat tiliga bo'lgan e'tibor qayta tiklana boshlandi. 2019-yilga kelib, davlat tilining himoyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. 2019-2021-yillar oralig'ida ikkita Prezident Farmoni, o'nlab hukumat qarorlari qabul qilinib, davlat tilining huquqiy himoyasi va boshqaruv tizimida, qonunchilikda va ish yuritishda o'zbek tilining keng miqyosda qo'llanilishiga yo'l ochildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbarlarida o'zbek tilida nutqlar yangradi. Ko'p yillardan buyon mavhum va muallaq holda turgan lotin alifbosini amalga joriy qilish muammosi hal qilindi. Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosini takomillashtirish bo'yicha jadal ishlar boshlanib ketdi. Umuman olganda, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi taraqqiyotida yangi bir davr boshlandi.

### MUHOKAMA

Davlat tili taraqqiyoti, o'zbek tilida ish yuritish va hujjatchilik tizimida hali ham hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar talaygina. Bulardan eng muhimi – lotin alifbosiga asoslangan o'zbek



**TILSHUNOSLIK**

alifbosini takomillashtirish masalasidir. Mazkur sohadagi ishlar bugungi kunda butun turkiy olam bilan birgalikda hal qilinishi rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, o'zbek hujjatchiligidagi jiddiy muammolardan biri – o'zbek tilida hujjatlarni standartlashtirish masalasiga e'tibor qaratilmayotganligidir. Barcha hujjat nomlari, ularda aks etadigan ma'lumotlarning mazmun-mohiyati, matn qoliplari, hujjat rekvizitlari, hujjatchilik atamalari tilshunoslar va huquqshunoslar hamkorligida standartlashtirilishi, huquqiy va lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi va rasmiy tarzda tasdiqlanishi lozim. Hujjatlarning yagona qolipga keltirilishi va rasmiy ravishda tasdiqlanishi ish yuritish tizimini birmuncha soddalashtirishga xizmat qiladi.

Standartlashtirish orqali har bir hujjatning ish yuritishdagi vazifasini belgilash, matn qolipini shakllantirish, rekvizitlarini tasdiqlash, hujjat aylanishi va saqlanishi tartibotini belgish tartibga solinadi.

Keyingi yillarda o'zbek hujjatchiligi sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, hujjatlar matniga doir huquqshunoslik sohasida erishilayotgan yutuqlar asosida hujjat qoliplarining standartlarini yaratish bugungi hujjatchilikning dolzarb vazifasi bo'lib kelmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida o'zbek tilida ish yuritishga doir qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar ishlab chiqildi. O'zbekcha ish yuritish tizimini qayta yo'lga qo'yish uchun dastlabki qilinadigan ish hujjat nomlarini o'zbekchalashtirish va hujjat matni qoliplarini o'zbek tilining lingvistik tabiatiga moslashtirish bo'ldi. 1990-yilda "O'zbek tilida ish yuritish" qo'llanmasining yaratilishi mazkur muammoni hal qilishga qaratilgan dastlabki tajriba edi. Qo'llanma qayta ishlanib, to'ldirilib 9 marotaba nashr qilingan. Uning birinchi nashrida hujjat nomlari va matn qoliplari asosan ruscha hujjatlarning tarjimasiga asoslangan, kalkalash usulidan unumli foydalanilgan bo'lsa, keyingi nashrlarda bu kamchiliklar bosqichma-bosqich bartaraf qilib borildi. Qo'llanmaning 2021-yilda lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvida chop etilgan oxirgi nashrida shunday ma'lumotlar keltiriladi: "Bugun o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirishga jadal kirishilgan bir davrda ana shunday qo'llanmaning takomillashtirilgan yangi nashrini tayyorlashga katta ehtiyoj tug'ildi. Ana shu ehtiyojni inobatga olgan holda qo'lingizdagi yangi nashr tayyorlandi. "Davlat tilida ish yuritish" amaliy qo'llanmasining ushbu nashrida avvalgi nashrida mavjud bo'lgan xato va kamchiliklar tuzatildi va bartaraf etildi. U hozirgi kunda amaliyotda ko'p qo'llanayotgan hujjat namunalari bilan to'ldirildi. Xizmat yozishmalari yanada takomillashtirildi. Lug'at qismi ish yuritishga doir va ish yuritishda qo'llaniladigan yangi atamalar bilan to'ldirildi, shuningdek, ish yuritishga bevosita aloqador bo'lmagan ayrim atamalar chiqarib tashlandi"[1:13].

Darhaqiqat, qo'llanmaning oxirgi nashri birmuncha mukammallashgan. Amaliy qo'llanmaning 2017-yilda nashr qilingan 8-nashri [4] bilan oxirgi nashri solishtirilganda kitob butunlay qayta tahrir qilinganligini, to'ldirilganligini kuzatish mumkin. Avvalo qo'llanma hajmi 456 betdan 528 betga kengaytirilgan. Kitobning Kirish qismi to'ldirilgan va qayta yozilgan. Deyarli barcha hujjat matnlari tahrir qilingan va yangilangan. Xizmat yozishmalari qismiga "Talabnoma" xizmat xati turi kiritilgan, lug'at boyitilgan. Mundarijada hujjat turlari va hujjat nomlarining ruscha tarjimai olib tashlangan. Mazkur o'zgarishlar qo'llanma materiallari o'zbek tilining lingvistik tabiatiga yanada moslashtirilgandan darak beradi.

O'zbek tilida ish yuritish terminologiyasini tartibga solish maqsadida 2024-yilda "Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug'ati" yaratildi. Lug'at tuzuvchilar haqli e'tiroz bildirganidek, "O'zbekcha yoki o'zbek tili qonun-qoidalar asosida hosil qilingan terminlar bilan almashtirish imkoni bo'lgan yuzlab ruscha-baynalminal terminlar yillar davomida o'zbek tilida qo'llanilib keldi, lekin ularni tartibga keltirish haqida o'ylab ham ko'rilmadi" [3:21]. Lug'atning yaratilishi ish yuritish tizimida ko'plab atamalarni o'zbek tilidagi muqobilini to'g'ri va o'rinli qo'llash imkonini berdi.

**NATIJALAR**

Bugungi kunda "Davlat tilida ish yuritish" amaliy qo'llanmasi va "Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug'ati" ish yuritish tizimida asosiy qo'llanmalar sifatida foydalanilmoqda va hujjat qoliplari namunalarda ko'rsatilgan shakllarga tuzilmoqda. Biroq "Davlat tilida ish yuritish" amaliy qo'llanmasining juz'iy kamchiligi huquqiy ekspertizadan o'tkazilmaganligidir. Kitob adliya tizimining mutaxassislari tomonidan qayta tahrir qilinganda uning amaliyotda qo'llanilishi yanada kengaygan bo'lar edi.

Shu o'rinda yana bir muammoni ta'kidlab o'tish kerakki, o'zbek tilida hujjatlarni standartlashtirish masalasiga hali-hanuz e'tibor qaratilmayapti. Barcha hujjat nomlari, ularda aks etadigan ma'lumotlarning mazmun-mohiyati, matn qoliplari, hujjat rekvizitlari, hujjatchilik atamaları tilshunoslar va huquqshunoslar hamkorligida standartlashtirilishi lozim. Hujjatlarning yagona qolipga keltirilishi va rasmiy ravishda tasdiqlanishi ish yuritish tizimini birmuncha soddalashtirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

### XULOSA

Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosini takomillashtirish, ish yuritish hujjatlarini standartlashtirish, ish yuritish terminologiyasini qayta ko'rib chiqish kabi masalalar hal qilinsa, davlat tilining taraqqiyoti yanada yuksalgan bo'lar edi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aminov M. va boshqalar. Davlat tilida ish yuritish. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti -2021.
2. Ro'ziyev Z. Davlat tiliga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlili / Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar. Respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent: 2022.
3. Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug'ati / Tuzuvchilar: Madvaliyev A., Sadinova N., Saidno'monov A. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy iyi, 2024. -384 b.
4. Аминов М. ва бошқалар. Иш юритиш. Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти -2017.
5. Садинова Н.Ўзбек тили иш юритиш терминологияси: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlar milliy bazasi - <https://lex.uz/docs/-863120>.